INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA BILVOSITA TAHDID NUTQIY AKTINI IFODALANISHI

Sobirova Nasiba Erkinjonovna
Samarqand Davlat Chet Tillar Instituti
Tayanch doktoranti
fe.nasiba.s@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.22090765
+998915321721

Annotatsiya

Mazkur tadqiqotda tahdid nutqiy aktining pragmatik va kommunikativ xususiyatlari, xususan, uning eksplitsit va implitsit ifodalanish shakllari tahlil qilinadi. Tahdid mazmunidagi nutqiy ifodalarning o‘ziga xos jihati shundaki, ular ko‘pincha direktiv va komissiv illokutiv komponentlarni birlashtiradi. Bunda so‘zlovchi bir tomondan tinglovchini muayyan harakatni bajarishga yoki undan tiyilishga undaydi, ikkinchi tomondan esa kelajakda ma’lum, ko‘pincha salbiy oqibatga ega harakatni amalga oshirish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

Kalit so‘zlar: tahdid nutqiy akti, kommunikativ maqsad, pragmatika, illokutiv akt, direktiv akt, komissiv akt, eksplitsit ifoda, implitsit ifoda, propozitsional mazmun, bilvosita nutqiy akt, direktiv-komissiv munosabat, kommunikativ niyat.

Kommunikativ maqsad bilvosita ifodalanganida, muloqotdoshlarning bir-birini tushunishi hamda so‘zlovchining kommunikativ niyatini to‘g‘ri anglash jarayoni muayyan darajada murakkablashadi.

Eksplitsit tarzda ifodalangan kontekstda so‘zlovchi maqsadi asosiy planga kiradi. Unda tahdidning maqsadi, aniq harakatining amalga oshirish shartlari yuzaga keladi va o‘sha harakatning ochiq namoyishi kuzatiladi. Bu holni quyidagi misollarda ko‘rishimiz mumkin:

– Ovozingni o‘chir, haromi! Meni go‘l deb o‘ylayapsanmi?! Hech bo‘lmasa, ko‘ngil uchun “kuyov bo‘lmish kim o‘zi?” deb so‘rab qo‘y. Sen javobingni qachon aytishing kerak edi? O‘n kun o‘tdimi, Haydar? (Tohir Malik, 117-b)

Ushbu kontekstida “ovozingni o‘chir!” gapi harakatining amalga oshish shartini ko‘rish mumkin. Bu yerda bu shart “hech bo‘lmasa, ko‘ngil uchun kuyov bo‘lish kim o‘zi” jumlasi bilan kiritilgan.

Ko‘plab tadqiqotchilar tahdid mazmunidagi nutqiy ifodalar ikki xil illokutiv komponentni – direktiv va komissiv aktlarni – o‘zida birlashtirishini qayd etadilar. Bunday vaziyatlarda so‘zlovchi kelajakda adresatga zarar yetkazuvchi harakatni amalga oshirish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi va shu orqali uni muayyan xatti-harakatni bajarishga yoki bajarishdan tiyilishga majburlaydi. Natijada tahdidning komissiv mazmuni asosida direktiv ma’no yuzaga keladi. Tahdid shaklan komissiv propozitsiya orqali ifodalansa-da, pragmatik jihatdan direktiv vazifani bajargan hollarda u bilvosita nutqiy akt sifatida baholanadi.

Tahdid nutqiy aktining bilvosita ifodalanishi tinglovchi yoki boshqa subyektni majburlashni amalga oshirish bilan bog‘liq hisoblanadi. Ammo so‘rash maqsadida ishlatilganida ham bilvosita iltimos sifatida talqin qilinishi mumkin. Buzrukovaning ta’kidlashicha direktiv nutqiy aktlari presiriptiv (harakatni bajarishga buyruq berish mazmuniga ega tuzilmalar), rekvistiv (so‘zlovchi foydasiga bajarilishi so‘ralgan harakatlar, suggestive (maslahat mazmuniga ega) turlarga ajratiladi.

Bunday direktiv-kommissiv nutqiy aktlar odatda quyidagi mantiqiy-konseptual sxema asosida quriladi:

If you do/don't do X, (then) I will do/will not do Y,

Ushbu sxemada X – tinglovchiga talab qilayotgan harakat, Y esa – so‘zlovchiga nisbat berilayotgan harakati hisoblanadi.

propozitsional mazmun, ya’ni direktiv va komissiv aktlarini hosil qilishi mumkin. Direktiv propozitsiyada tinglovchini kelajakda ma’lum bir harakatini bajarishi predikat orqali ifodalanadi, Masalan, get away – yo‘qol, open the gate – eshikni och kabi birliklar orqali amalga oshiriladi. Tahdid nutqiy akti komissiv aktlarda so‘zlovchi kelajakda ma’lum bir harakatini amalga oshirish yoki amalga oshirmaslik borasida ma’lumot beradi. Bunda o‘sha shaxsga zarar yetkazishni va’da qiladi yoki tahdid qiladi. Tahdidning kuchayishi tinglovchi tomonidan taqdim etilgan harakatini bajarishga yoki bajarmasligiga bog‘liq bo‘ladi. Masalan: (Robert Louis Stevenson. – P. 72)

“Say one word of this secret, and I’ll chase you across every sea that touches the earth.

No port, no island, no ship will save you from my hand.

I’ll find you, and when I do, you’ll wish you had held your tongue.”

Nutqda mazkur ma’nolar turlicha ifodalanishi mumkin:

1) direktiv va komissiv propozitsiyalarning ikkalasini ham eksplitsit (ochiq) ifodalash;
2) direktiv eksplitsit, komissivni implitsit (yashirin) ifodalash;
3) direktiv implitsit, komissivni eksplitsit ifodalash;
4) ham direktiv, ham komissiv propozitsiyalarni implitsit (yashirin) ifodalash.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Buzrukova M. O‘zbek badiiy matnida undash konstruksiyalari // Xorijiy filologiya. – Samarqand, 2020. – № 1 (74). – B. 108.
2. Buzrukova M. Iltimos nutqiy aktning pragmatik va lingvomadaniy xususiyatlari (ingliz va o‘zbek tillari materialida).
3. Малик Т. Шайтанат: роман: икки жилдлик. Тўлдирилган ва қайта таҳрир қилинган нашр. – Т.: Hilol-Nashr, 2017. – 1-жилд. – 830 б.; 2-жилд. – 720 б. –